

TALABALARNI MILLIYLIKKA TARBIYALASHDA AUDITORIYADAN TASHQARI MASHG'ULOTLARNING TARBIYAVIY POTENTIALI

Venera Erjanova

Qaraqalpoq Davlat Universiteti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14709710>

Annotatsiya. Bu maqolamizda talabalarning, aniqroq aytganda bo'lajaq o'z kasblarning yetuk mutaxassislarining vatanga muhabbat tuyg'usini milliylik ruhida tarbiyalashda oliy ta'lim muassasalarida auditoriyadan tashqari ishlarning ahamiyatini va bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar, pedagog kadrlarning talabalar tarbiyasida o'qitishning mustaqil ishlarida ham faol ishtirok etishlariga ularni Milliy tarbiya ruhidagi yetuk mutaxassislar bo'lib yetilishiga qo'shayotgan hissalarini haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Vatanga muhabbat, milliylik, tarbiya, pedagog, talabalar va yoshlar, auditoriya, mustaqil ishlar, imkoniyatlar.

ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЙ ПОТЕНЦИАЛ ВНЕКЛАССНОЙ РАБОТЫ В НАЦИОНАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ УЧАЩИХСЯ

Аннотация. В данной статье речь пойдет о значении внеаудиторной работы в высших учебных заведениях в воспитании студентов, точнее, будущих специалистов своих профессий, в духе национализма, и реформах, проводимых в этом направлении. обеспечивается активное участие педагогов в самостоятельной педагогической работе по воспитанию студентов, информация об их вкладе в становление зрелых специалистов в духе воспитания.

Ключевые слова: любовь к Родине, национализм, образование, педагог, студенты и молодежь, аудитория, самостоятельная работа, возможности.

THE EDUCATIONAL POTENTIAL OF EXTRACURRICULAR ACTIVITIES IN THE NATIONAL EDUCATION OF STUDENTS

Abstract. In this article, we will discuss the importance of non-auditory work in higher educational institutions in the education of students, more precisely, the future experts of their professions, in the spirit of nationalism, and the reforms implemented in this regard, the active participation of pedagogues in the independent work of teaching in the education of students. information about their contribution to becoming mature specialists in the spirit of education is provided.

Keywords: love for the motherland, nationalism, education, pedagogue, students and young people, audience, independent work, opportunities.

Yosh avlod ongiga Vatanga muhabbat, istiqolga sadoqat tuyg'ularini singdirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar hamda an'ana va urfodatlarimizdan yoshlar tarbiyasida foydalanish hozirgi davrning muhim masalalaridan hisoblanib, bu o'rinda tarbiya muhim rol egallaydi.

Talaba yoshlarni haqiqiy fuqaro etib tarbiyalash, ularda milliylik tuyg'usini qaror toptirish, fidoiy, vatanparvar fuqaro sifatida tarbiyalash evaziga ta'minlanadi. Yosh avlodda milliylik hissini va e'tiqodini tarbiyalamay turib, ularda axloqiy, xulqiy odatlar va ko'nikmalarni shakllantirib bo'lmaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF- 5847-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi"da oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari, zamonaviy bilimga ega va mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish va ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda, ijtimoiy soha hamda iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishga strategik masalalar sifatida alohida ahamiyat berilgan. Talabalarni auditoriyadan tashqari da ham haqiqiy shaxs va milliy ruhda tarbiyalashda o'qituvchilar oldida ham birqancha vazifalar qo'yiladi, ularning talabalarg'a berayotgan topshiriqlari va mustaqil ishlarining ham mazmunan vatanparvarlik va komil inson bo'lishga yo'naltirilgan bo'lishini ta'minlash maqsadida auditoriyadan tashqari ishlarining ahamiyatini bir ko'rib chiqishga harakat qilamiz:

1. Bajarilayotgan ishning foydaliligi. Agar pedagoglar faoliyati davomida o'zi bergan mustaqil ish topshirig'i haqida o'quvchilarda ish natijalarining kundalik hayotda-jumladan ma'ruza jarayonida, metodik qo'llanmada, laboratoriya ishida yoki amaliy mashg'ulotlarda, maqolalar tayyorlashda foydalanilishi mumkinligini bilsa, uning bajarayotgan ishiga bo'lgan munosabati keskin tarzda yaxshi tomonga o'zgaradi, hamda ish sifati ham ortadi. Shunga ko'ra, talabani ruhan bunday ishga tayyorlash, bajariladigan ishning zarurati ko'rsatib berilishi kerak.

2. Bo'lajak yetuk mutaxassislarning mustaqil ishlarida ham o'qituvchining ijodiy faoliyati. Bu nihoyatda xilmaxil ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. Xususan, kafedralar tomonidan olib boriladigan ilmiy tadqiqot ishlari, badiiy ijod, metodik ishlar va hokazolar.

3. Fan olimpiadalarida, ilmiy-tadqiqot ishlarida, amaliy ishlar tanlovlarida ishtirok etish va boshqalar.

4. Bilimlarni nazorat qilishda qiziqtiruvchi omillardan foydalanish (reyting, testlar, noan'anaviy imtihon shakllari v.b.). Bu omillar tegishli holatlarda musobaqa ruhini vujudga keltiradi. Mana shu holatning o'zi talabada o'z ustida ishlashni, o'zini rivojlantirishga ichki ehtiyojini shakllantiradi va rivojlantiradi.

5. Mustaqil ishlarni tashkil etish mazmuni va shakllariga o'quv jarayonida yetarlicha vaqtning ajratilayotganligi ham talabalarning mustaqil ishlarini faollashtirishiga imkon beradi.

Bunda hal qiluvchi rolni o'qituvchi ado etadi.

U umuman,talaba bilan emas,balki muayyan shaxs bilan ishlayotganini har doim diqqat markazida bo'lishi lozim. O'z talabasining kuchli va o'jiz tomonlarini yaxshi bilishi, individual qobiliyati va qiziqishlarini nazarda tutishi maqsadga muvofiq bo'ladi. O'qituvchining vazifasi talabaning — bo'lajak yuqori malakali mutaxassisning yaxshi tomonlarini ko'rish va ko'paytirishdan iborat.Har qanday fanni o'rganishda ham mustaqil ishni tashkil etishning o'zaro aloqador uch shakli ko'zga tashlanadi:

1. Auditoriyadan tashqari mustaqil ishlar.
2. Auditoridagi mustaqil ishlar. Bu bevosita o'qituvchi rahbarligida tashkil etiladi.
3. Ijodiy. Ijodiy shakl nihoyatda xilma-xil bo'lishi mumkin.

Talabalarda mustaqil bilimlarini zamon talabiga moslashtirib borish, ma'lumotlar oqimi ichidan zarurlarini ajratib olish va ma'lumotlarni qayta ishlash, tahlil qilish qobiliyatlarini shakllantirish sifatli kadrlar tayyorlash jarayonining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda yoshlarning milliylik tuyg'usini qaror toptirish murakkab jarayon bo'lib, bunda dastlab o'quvchilarga vatanparvarlikning mohiyati va me'yoriy qoidalar mazmuniga oid bilimlar beriladi, avvalo, fuqarolik odobi va madaniyati haqida tushunchalar, bu xildagi hatti-harakatlarga oid namunalar keltiriladi, so'ngra faoliyat uyushtiriladi. Ana shu asosida ularda vatanparvarlik tushunchasi shakllanadi va fuqarolik xulqiy odatlari hosil qilinadi.

Vatanparvarlik tarbiyasining bosh maqsadi – yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy, ma'naviy-tarixiy an'analarga, urf-odatlari hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalarni ishlab chiqib amalga joriy etishdir. Vatanparvarlik tarbiyasining asosiy vazifasi – shaxsning aqliy, axloqiy, erkin fikrlovchi va jismoniy rivojlanishi, uning qobiliyatlarini har tomonlama ochish uchun imkoniyat yaratishdir.

REFERENCES

1. Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli Tashkil etish bo'yicha 5 ta muhim tashabbus. // Xalq so'zi 2019 yil 19 mart
2. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. - Qarshi: Nasaf, 2000. 180-b
3. Og'ayev S. Yangi pedagogik texnologiya-hayotiy ehtiyoj. «Xalq ta'limi» jurnali, 2001,
4. Yerjanova V. POLITICAL, SCIENTIFIC-PEDAGOGICAL ASPECTS OF EDUCATING STUDENTS ASSOCIATED WITH NATIONAL VALUES //Modern Science and Research. – 2023. – T. 2. – №. 10. – C. 356-362.
5. Kuanishbaevna E. V. The role of the teacher in teaching students in accordance with national values //European Journal Of Business Startups And Open Society. – 2022. – T. 2. – №. 1. – C. 79-80.

6. Babasheva B. G., Sanjarbek Y. SHAXSLARDA MUNOSABAT TURLARI VA MULOQAT HAQIDA TUSHUNCHA //The Role of Exact Sciences in the Era of Modern Development. – 2024. – T. 2. – №. 5. – С. 9-12.
7. Babasheva B. Effective Methods of Instructing Primary Class Students to Creative Thinking //Journal of Advanced Zoology. – 2023. – T. 44.
8. Babasheva B. G. Some Issues of Transmission of Written and Oral Speech of Primary Schoolchildren //Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture. – 2023. – T. 4. – №. 6. – С. 13-16.
9. Бабашева Б. Г. ТАҚҚОСЛАШ ЁКИ ҚИЁСЛАШГА ДОИР МУСТАҚИЛ ИШЛАРГНИНГ БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАР БИЛИМИНИ ОШИРИШДАГИ АҲАМИЯТИ //Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2023. – Т. 2. – №. 9. – С. 14-15.